O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
SIRDARYO VILOYATI
BOSHQARMASI

Sirdaryo viloyati 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Hondamir ko‘chasi, 7-uy, Tel/Faks: 71-203-11-08, E-mail: sirdarya_davekspert@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Otajonov Mansurjon Ma’rufjon O‘g‘li

Sana: 22-04-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

237333 - SONLI

Obyekt nomi: “Toshkent shahar, Mirzo-Ulug‘bek tumani, Sayram MFY, Sayram ko‘chasi 22, 24-uy manzilida joylashgan quyi qavatlarida savdo va xizmat ko‘rsatish markazlari, shuningdek, savdo va kungilochar maydonlar, xizmat ko‘rsatish markazlari va ofislar uchun binolardan iborat biznes markazi bo‘lgan ko‘p qavatli turar-joy binolarini qurish” (Biznes markazi)	
Buyurtmachi:	LUX BUILDING GROUP MCHJ
Bosh loyihachi:	"XALQ ME`MORI S.R.ODILOVNING IJODIY USTAXONASI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	“AVALON GROUP” MChJ
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	056597

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Belgilangan tartibda tasdiqlangan va kelishilgan loyiha topshirig‘i.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 6-fevraldagi 1726-1726269-60975-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshiriqlari.

1.3.“O‘ZGAShKLITI” MChJining Toshkent shahar va viloyati filiali 2023-yildagi muhandislik-geologik xulosasi.

1.4. Buyurtmachi bilan loyihachi tashkilot o‘rtasida 2024-yil 20-maydagi 11-LB/24-17AC-2024-sonli shartnoma.

1.5. “LUX BUILDING GROUP”MChJning 2025-yil 18-martdagi 13/25-sonli xati.

1.6. “LUX BUILDING GROUP”MChJning 2025-yil 11-apreldagi 18/25-sonli xati. (NBSh)

1.7. “Shaharsozlik hujjatlari ekspertiza qilish Respublika markazi” DMning 2024-yil 21-iyundagi 209609-sonli yig‘ma ekspert xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

Loyiha tarkibiga koʻra “Toshkent shahar, Mirzo-Ulugʻbek tumani, Sayram MFY, Sayram koʻchasi 22, 24-uy manzilida joylashgan quyi qavatlariда savdo va xizmat koʻrsatish markazlari, shuningdek, savdo va kungilochar maydonlar, xizmat koʻrsatish markazlari va ofislar uchun binolardan iborat biznes markazi boʻlgan koʻp qavatli turar-joy binolarini qurish” (Biznes markazi) obyekti boʻyicha loyiha hujjatlarining elektron shakli.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Obyekt joylashgan tuman tavsifi.

Mazkur loyihalanayotgan obyekt Toshkent shahar Mirzo Ulugʻbek tumani, “Sayram” MFY “Sayram” koʻchasi, 22,24-uy hududida joylashgan. Asosiy 7-qavatli binosining kirish qismi va bosh fasad yuzi janubiy sharqga qaratilgan. Hudud ichida avtoturargoh koʻzda tutilgan.

Me’yoriy qor tushish bosimi – So=0,50 KPa (50 kgs/m2) (QMQ 2.01.07-96).

Me’yoriy shamol tezligi bosimi – Wo=0,38<0,48 KPa (38<48 kgs/m2) (QMQ 2.01.07-96).

Olovbardoshlik darajasi - II boʻyicha SHNQ 2.01.02-2004, SHNQ 2.08.01-19.

Konstruktiv yongʻin xavfi sinfi – C1.

Binoning funksional yongʻin xavfi sinfi SHNQ 2.01.02-2004 boʻyicha.

Kafe. 1-qavat - F3.2.

Savdo binolari - 1.2 qavatlar va yertoʻla - F3.1.

Biznes markaz - F4.3.

Javobgarlik darajasi - III (normal).

Iqlim mintaqasi - IVG.

Qurilish-iqlim mintaqasi - II.

Ishonchlilik koeffitsiyenti - 0,95.

Energiya samaradorligi sinfi - V.

2b-jadval boʻyicha issiqlik himoyasi darajasi QMQ 2.01.04-2018 - ikkinchi.

Maydonning zilzilaviyligi - 8 ball.

3.2. Bosh reja texnik iqtisodiy korsatgichlari. (GP. TEP).

1. Hududning umumiy maydoni - 0.36 100
2. Bino va inshootlar maydoni - 0.09 25.4
3. Yoʻllar - 0.21 58.0
4. Trotuarlar - 0.02 6.0
5. Koʻkalamzorlashtirish - 0.04 10.6

3.3. Texnik iqtisodiy korsatgichlari. (Biznes markaz. AR. TEP).

1. Qavatliligi - 7.
2. Binoning qurilish maydoni - 874,00 m2.
3. Binoning umumiy maydoni (belgidan yuqorida. +0.000) - 6.665,58 m2.
4. yertoʻlaning umumiy maydoni - 846,19 m2.
5. Binoning foydali maydoni, (belgidan yuqorida. +0.000) - 5968,91 m2.
6. yertoʻlaning foydali maydoni - 760,60 m2.
7. Binoning hisobiy maydoni, (yuqorida belgi. +0.000) - 5741,09 m2.
8. Yertoʻlaning hisobiy maydoni - 741,44 m2.
9. Qurilish hajmi, shu jumladan - 30.438,9 m2.
10. Yuqorida belgi. +0,000 - 26724,40 m2.
11. Pastda belgi. +0,000 - 3714.50 m2.

3.4. Arxitektura yechimi. (Biznes markaz. AR). Binoning 1-qavati polining mutloq shartli belgisi sifatida +0.000 belgi qabul qilingan, bu bosh rejada (473.80) mutloq belgiga mos keladi. Bino 2ta asosiy kirish yolakli,7 qavatli,+0,000 shartli belgi sifatida 1-qavatining pol

yuzasi sathi qabul qilingan. Loyihadagi bino ikki yo‘lakli, 7 qavatli biznes markaz binosi, o‘q chiziqlari o‘lchamlari bo‘ylab gabaritlari (1-7) 45,60 x (A-G) 18,60 metr. Binoning eng baland qismigacha h=+29.80 metrni tashkil etadi.

3.5. Tashqi va ichki pardozlari. (AR).

Binoning konstruktiv tizimi - Sinchli (karkas) quyma (monolit) temir-betondan. Biznes markazning tashqi devorlari zichligi 500-600 kg/m3, qalinligi 250 mm bo‘lgan gazobloklardan, zichligi 80 kg/m3, qalinligi 50 mm bo‘lgan mineral paxta izolyatsiyasidan, qalinligi 200-400 mm bo‘lgan monolit temir-betondan, zichligi 80 kg/kub.m bo‘lgan mineral paxta izolyatsiyasidan loyihalashtirilgan.

Fasadning tashqi qoplamasi - Alyuminiy kompozit va keramogranit plitkalari bilan qoplangan shamollatiladigan fasad.

Yorug‘lik bo‘shliqlarini to‘ldirish - Alyuminiy profilli deraza bloklari va alyuminiy profilli vitraj oynalari bir kamerali shisha paketlari bilan to‘ldiriladi.

Tom - Tekis, shamollatiladigan, ichki tarnovli,

Tom qoplamasi - Bitum-polimer materiallardan ishlangan ikki qatlamli suv o‘tkazmaydigan gilam, qalinligi 50-100 mm. bo‘lgan mineral paxta plitalaridan ishlangan izolyatsiya.

Gidroizolyatsiya - Bitum-polimer materiallardan ishlangan ikki qatlamli suv o‘tkazmaydigan to‘shama.

Tashqi to‘siq konstruksiyalarining issiqlik uzatishga qarshiligi.

Devorlar 2,2 kv.m S/Vt dan kam emas.

Yorug‘lik bo‘shliqlarini to‘ldirish - 0,53 kv.mS/Vt dan kam emas.

Tomlar - 3,0 kv.mS/Vt dan kam emas.

Binolar yuk ko‘taruvchi elementlarining olovbardoshlik chegarasi - R 90.

Tashqi yuk ko‘tarmaydigan devorlar - E 15.

Zina kataklari ichki devorlari - REI 90.

Zina marshlari va maydonchalari - R 60. 10.

Binoda ikkita lift loyihalashtirilgan. Kabina o‘lchamlari: kamida 1,1x1,4 m (nogironlarni aravachada tashish uchun); 2,1x1,1 m (odamlarni zambilda tashish uchun). Eshikning yorug‘likdagi kengligi kamida 0,9 m.

Liftlar yorug‘lik va tovush signalizatsiyasi, avtomatlashtirilgan boshqaruv va tutunga qarshi himoya tizimlari bilan jihozlangan. Liftlardan biri o‘t o‘chirish bo‘linmalarini tashish uchun mo‘ljallangan.

Lift eshiklari - yong‘inga qarshi 1 turdagi (EI 60).

Liftlarning harakat tezligi - 1,0 m/s dan kam emas.

Bino aholining kam harakatlanuvchi guruhlari uchun qulay: binoga kirish zinapoyasiz (yog‘ingarchilikdan himoya qilish uchun turar-joy bo‘limlariga kirish oldida suv qabul qiluvchi lotoklar mavjud), kirish eshiklari yorug‘likda kamida 0,9 m kenglikda loyihalashtirilgan, oynavand eshiklar rangli belgilarga ega, tutqichlarda qavat raqamini taktil belgilash ko‘zda tutilgan, liftlar taktil tugmalar va tovush signallari bilan jihozlangan.

Materiallar, buyumlar va konstruksiyalar yong‘in xavfsizligi normalari talablariga muvofiqlik sertifikatlariga, gigiyenik sertifikatlarga, normalarga muvofiqlik sertifikatlariga ega bo‘lishi kerak.

3.6. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yechim. (Biznes markaz. AR. NBSH).

Yangi qurilsih loyihasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha

qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida” PQ-266-son Qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlarining kirish va chiqish, fuqarolarni nogironligi bo‘lgan shaxslarning erkin foydalanishi uchun moslashtirish talablari bajarilgan. Eshiklar ostonasiz qilingan. Pandus va perilla oldi kirish qismiga talab etilmaydi pol sathi +0.00 sathda loyihalangan. Chaqiruv tugmasi o‘rnatilgan. Ichki yo‘laklarda taktil qoplamalar ko‘rsatilgan. Tashqi yo‘laklarda taktil qoplama qo‘llanilgan. Avtoturargoh loyihada kiritilgan, belgi ko‘rsatilgan. Binoning qavatlarida hojatxona loyihalangan. Yuqori qavatlarga harakatlanish liftda amalga oshiriladi. Ichki xovliga chiqish joyida ko‘targich qurilma qo‘llanilgan. Buyurtmachi “Lux Building Group” MChJning 2025-yil 11-apreldagi 18/25 va 19/25- sonli xatlariga asosan bajarilmagan boshqa talablar va ish turlari bo‘yicha buyurtmachi javobgar. “Nogironligi bo‘lgan shaxslar” uchun qurilmalar va jixozlarini o‘rnatish, qurilish jarayonida buyurtmachi va quruvchi o‘rtasida aniqlanadi. Barcha talablar bajarilishini ta’minlash va javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan holda buyurtmachi ijobiy xulosani qabul qilishi bilan unga yuklanadi.

3.7. Energiya samaradorligi va enrgiya tejamkorligi.

Derazalar, alyumin 1 kamerali profil, shishapaket. Tashqi devorlari – Tashqi pardozlash ishida mineral bazalt tolali yoki boshqa yonmaydigan turga mansub mineral plitka qoplama bilan qoplanadi. Tom issiqlik qoplamasi – Qattiq turdagi penopleks qoplanadi. va meneral tolali bazalt qoplanadi. Eshik romlarini-issiqlik saqlovchi va zamonaviy eshik romlarini o‘rnatilgan, binoning kirish eshiklariga o‘zi yopiluvchi mexanizmlar o‘rnatilgan. Tashqi eshiklardan kirish joylariga tamburlar yechimi qilingan. Elektr ta’minotida – Binoda energiya sarfini qisqartirish va zahira bo‘yicha, muqobil energiyadan foydalanish samaradorligini oshrish uchun binoning tom qismiga quyosh fotoelektrik modul mono kristalli quyosh panellari o‘rnatilgan. Binoni qo‘shimcha issiq suv bilan ta’minlash uchun quyosh panelli suv isitgichlari o‘rnatilgan. Binoni ichki xonalari va yo‘laklarini yoritish tizimida energiya tejamkor LED (turidagi) belgili yoritgich panellar qo‘llanilgan.

3.8. Konstruktiv yechimlari. KJ bo'limi.

Biznes markaz binosi qurilishi.

Binoning o’qlar bo’yicha umumiy o’lchamlari – 45.6x18.6m, to’g’ri to’rtburchak shaklida;

Bino qavatliligi – 7 qavatli, yerto’lali;

Poydevor qurish uchun dastlab, yer qazish ishlari bajariladi;

Poydevori – B20 sinfli yaxlit quyma temirbeton plitadan iborat, kesim balandligi 800mm;

Yerto’la devorlari – B20 sinfli quyma temirbeton devorlardan iborat, kesim qalinligi 300mm;

Devorlari – qalinligi 100mm, 200mm va 250mm li gazobeton blokli terimlardan iborat.

Devorlarni kuchaytirish metall ustun konstruksiyalari hamda gorizontal armosetka elementlari yordamida bajariladi;

Diafragma elementlari – B25 sinfli quyma temirbeton davorlardan iborat, kesim qalinligi 200mm, 300mm va 400mm;

Ustunlari – B25 sinfli quyma temirbetondan iborat, kesim o’lchamlari 400x400mm, 600x600mm, 600x800mm, 600x1000mm;

To’sinlari – B35 sinfli quyma temirbetondan iborat, kesim o’lchamlari 400x400mm va 400x600mm;

Orayopma va tomyopma elementlari – B25 sinfli yaxlit quyma temirbeton plitalardan iborat, kesim qalinligi 200mm;

Zina konnstruksiyasi – B20 sinfli quyma temirbeton konstruksiyadan iborat;

Yerto’ladan chiqish zina elementi – B15 sinfli quyma temirbetondan iborat;

Lift shaxtasi – quyma temirbeton konstruksiydan iborat.

3.9. Yong‘in xavfsizligi bo‘yicha qisqacha ma’lumot.

45,6 x 18,6 m. o‘qlar o‘lchamidagi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi biznes markazi binosi (yerto‘la qavati texnik xonalar) 7 qavatli, qavatlar balandligi: yerto‘la – 4,25 m.,1-qavat – 4,5 m., 2-qavat – 4,0 m., qolgan qavatlar – 3,6 m. Binoning balandligi +22,9 m (eng yuqori qavatining ochiladigan eshigining pastki chegarasigacha). Binoning 6-qavatida evakuatsiya maqsadida ochiq xavfsizlik zonalari tashkil qilingan.

Isitish tizimi – alohida chiqish yo‘li orqali tomda o‘rnatilgan qozonxona orqali. Tom qismi – yassi.

Binoning yong‘inbardoshlik darajasi – II, konstruktiv yong‘in xavfi sinfi – C1., funksional yong‘in xavfi sinfi – F4.3.

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida ko‘zda tutilgan tadbirlar: Ishchi loyiha hujjatlarida yong‘in-qutqaruv ekipajlari uchun alohida lift, tutunga qarshi shamollatish tizimi, yerto‘la qavatida: chuqurchalar bilan ta’minlangan oynalar, lift oldida tambur-shlyuz, bevosita tashqariga evakuatsiya chiqish yo‘li, devorlarning tashqi fasad qismi yonmaydigan materiallar (keramogranit plitalar), ichki qismi suvoq ustidan bo‘yoq bilan qoplanishi, yong‘in signalizatsiya (manzilli habarlagichlar) va odamlarni yong‘indan xabardor va evakuatsiya qilishni (3-tur) boshqarish tizimlari, chiqish joylarida yong‘in signalizatsiyasining qo‘lda ishlovchi tashvishgohlari, bino atrofida yong‘in-qutqaruv avtomobillarini harakatlanishi uchun qattiq qoplamali yo‘l tashkil etilishi, tashqi yong‘in o‘chirish maqsadlari uchun yong‘in o‘chirish gidrantlari, ichki yong‘in o‘chirish (bir nuqtaga 2 ta 2,6 l/s oqim) kranlari, bosim ko‘taruvchi (asosiy, zahira va drenaj) nasoslar, evakuatsiya chiqish eshiklari chiqish yo‘nalishi bo‘ylab ochilishi ko‘zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Elektr ta’minoti bo‘yicha qisqacha ma’lumot:

Elektr yoritish.

Loyiha loyihalash topshirig‘i asosida hamda me’yor va qoidalarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Elektr ta’minotining ishonchliligi bo‘yicha binoning elektr qabul qilgichlari II toifali iste’molchilar qatoriga kiradi. Evakuatsiya yoritgichlari, "Chiqish" ko‘rsatgichlari, ishchi yoritgichlar - I toifali. Kirish va chiqish liniyalarida avtomatik o‘chirgichlari bo‘lgan VRU-1, VRU-2 va ShAVR (PR8503 tipidagi) shchitlari yoritish va kuch yuklamasining kirish taqsimlash shchiti sifatida qabul qilingan. Qavat shchitlari sifatida QE shchiti ishlatiladi.

Elektr energiyasini hisobga olish loyihalanayotgan TP ning RU-0,4 kV ga o‘rnatiladigan SE-308 turidagi elektron hisoblagich bilan amalga oshiriladi.

Guruhli yoritish tarmoqlari VVGng kabeli bilan ko‘zda tutiladi, bunda gofra quvurlar tikilgan shift ustida ochiq, devor shtrablarida yashiringan bo‘ladi. Magistral, ta’minlovchi va taqsimlovchi tarmoqlar - VPG kabeli bilan binoning qurilish konstruksiyalari bo‘yicha lotoklarda va PVX quvurlarida ochilgan. Yoritgichlar turini tanlash xonaning vazifasi va atrof-muhit xususiyatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Uzgichlar toza pol sathidan 1,0 m balandlikda o‘rnatiladi. Rozetkalar toza pol sathidan 1,0 metr balandlikda, konditsionerlar uchun 1,8 metr balandlikda o‘rnatiladi. "CHIQISH" ko‘rsatkichlari tashqi chiqishlarga o‘rnatiladi. Yoritishni boshqarish o‘chirgichlar yordamida amalga oshiriladi. Yo‘laklarda, foyelarda harakat datchigiga ega yoritgichlar qo‘llanilgan.

Odamlarni elektr toki urishidan himoya qilishning asosiy chorasi sifatida loyihada barcha elektr uskunalarini nolga keltirish ko‘zda tutilgan. Elektr uskunalarining barcha tok o‘tkazmaydigan metall qismlari yerga ulanishi kerak. Barcha montaj va qurilish ishlari QMK ETBga muvofiq amalga oshirilsin.

Tashqi elektr ta’minoti.
Ushbu loyiha me’yor va qoidalarga muvofiq loyihalash topshirig‘i asosida bajarildi.
Elektr ta’minotining ishonchliligi bo‘yicha iste’molchi II toifaga kiradi.
Obyektning elektr ta’minoti "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Toshkent shahar hududiy filiali tomonidan berilgan 08.02.2024-yildagi 05-0248-sonli texnik shartga asosan loyihalashtirilayotgan quvvati 4x1250kVA bo‘lgan to‘rtta transformatorli podstansiyadan ta’minlanadi.
Transformator podstansiyasidan taqsimlash shchitlariga (TRSh) AVVGng markali kabel 0,9 m dan kam bo‘lmagan chuqurlikda yotqiziladi, qumli yostiqchaga va ustidan g‘isht bilan himoyalanadi.
Boshqa muhandislik tarmoqlari va inshootlari bilan kesishganda kabel asbestga sement quvur yotqizilsin.
Yer qazish ishlarini olib borishda barcha manfaatdor tashkilotlarning vakillarini taklif qilish tavsiya etiladi.
4.2. Isitish va shamollatish tizimi bo‘yicha qisqacha ma’lumot:
Isitish uchun tashqi havo harorati -14°C, ichki havo harorati SHNK 2.01.01-22 " iqlim va fizikgeologik ma'lumotlar va QMQ 2.01.18-2018 "Binolar va inshootlarni isitish, shamollatish va konditsiyalashtirish uchun energiya sarfi me’yorlari” ga muvofiq ishlab chiqilgan. Isitish tizimi uchun polipropilen quvurlar PN25, yotqizish yopiq tarzda amalga oshiriladi va izolyatsiya bilan izolyatsiya qilinadi. Issitish tizimi gorizontal ikki quvurli qabul qilingan. Tizim issiqlik xarorati 80- 60°C hisoblangan. Sozlash kranlari va termoregulyatorlar bilan qurilmalarning issiqlik uzatilishini tartibga solish ko`zda tutilgan. Issitish jihozi sifatida bimetal radiatorlar, issiqlik uzatilishi 200 Vt qabul qilingan. Issiqlik ta`minoti va issiqlik tarmog'i qurish ko`zda tutilgan bo`lib 530 kvt 3 dona qozon o`rnatish ko`zda tutilgan. Loyihalashtirilayotgan binoning yozgi davrda sovutishda fancoil qurilmalari orqali chiller tizimi bilan sovutish ko’zda tutilgan. Shamollatish tizimi xojatxona, yuvunish xonalarida ko`zda tutilgan kanallar orqali tabiy va mexanik usulda amalga oshirilishi va boshqa ishlar ko’zda tutilgan bo’lib ishlar ketma-ketlikda amalga oshirish loyihalashtirilgan.
4.3. Suv va oqava suv tarmoqlari bo‘yicha qisqacha ma’lumot
Sovuq va issiq suv ta'minoti: Sovuq suv ta`minoti xo‘jalik-ichimlik va o‘t o‘chirish maqsadida loyihalangan. Talab etilgan suv sarfi 62.1m3. Sovuq suv tizimlari binoga kirish da ikki kirish bilan loyihalangan, kirish qismi dn-108mm po‘lat quvur bilan binoning ichida dn=75...20mm PPRS PN10 polipropilen quvurlardan ishlab chiqilgan. Bosimni oshirish maqsadida bino yerto‘la qismida nasoslar jamlanmasi loyixalashtirilgan (1-ishchi,1-zaxira). Loyiha doirasida bino tomiga 6 dona quyosh suv isitish qurimalari joylashtirilgan, ulardan chiqayotgan issiq suv markaziy isitish qozoni orqali iste`molchiga etkaziladi. Issiq suv tizimi dn=40...20mm polipropilen PPRS PN20 quvurlardan ishlab chiqilgan.
Yong`inga qarshi suv ta`minoti:
Tizim dn-89-76-57mm o'lchamdagi elektr payvandlangan po'lat quvurlardan ishlab chiqilgan. Ichki yong'inni o'chirish 50 mm diametrli purkagich va shlang uzunligi 18.5metr bo‘lgan yong'in gidrantlari orqali amalga oshiriladi. Har bir yong'in kabinasi ikki dona o‘t o‘chirish moslamasi bilan jihozlangan. Yong`inga qarshi suv sarfi har bir nuqtada 5.0 l/sek. Yong`in vaqtida bosimni oshirish uchun bino yerto‘lasida nasoslar jamlanmasi (1-ishchi, 1-zahira) ko‘zda tutilgan.
Ichki oqova suv tarmoqlari: Oqova suv quvurlarini yotqizish dn=50mm, dn=100mm polietilen quvurlardan, yashirin tarzda amalga oshiriladi. Qurilish inshootlaridan o'tish joylarida

quvurlar plastmassa bilan o'raladi. Avariya holatidagi suvlarni chiqarish N= 1.5 kvt pogrujnoy nasos yordamida amalga oshiriladi.

Sanitariya-texnik vositalari: san-uzellarning har birida qo’l yuvgich va unitaz joylashtirilgan.

Tashqi ichimlik va oqova suv tarmog’i ishchi loyihasi ekspertiza ko‘rigiga taqdim etilmadi.

4.4. Buyurtmachi tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018-yildagi 256-sonli qarori talablariga rioya qilinsin. Obyekt bo‘yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo‘yicha tegishli manfaatdor xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasining loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va Shaharsozlik kengashi ishchi organining 2023-yil 29-apreldagi 70515-sonli xulosasi.

5.2. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, Atrof-muhitni muhofaza qilish va Iqlim o‘zgarishi vazirligi Davlat Ekologik Ekspertizasi markazi Toshkent shahar filialining 2024-yil 26-apreldagi 01-02/14-612-sonli Davlat Ekologik ekspertizasi xulosasi.

5.3. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Toshkent shahar hududiy filiali”ning elektr tarmoqlariga ulanish uchun 2024-yil 8-fevraldagi 05-0248-sonli texnik shartlari.

5.4. “Toshkent shaharsuv ta’minoti” MChJning 2023-yil 27-noyabrdagi 270/4-4019-sonli texnik shartlari.

5.5. “Hududgaz Poytaxt” GTFning 2024-yil 5-apreldagi 061627-sonli texnik sharti.

5.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018 yildagi 256-sonli va 20.04.2022 yildagi 200-sonli qarorlari talablariga qat’iy roiya qilingan holda buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Loyiha hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2.Ekspertiza jarayonida soxa ekspertlari xulosasi izohlari buyurtmachi va loyihachi tomonidan qabul qilinib, loyihaga tuzatishlar va qo’shimchalar kiritildi.

6.3. Loyihalash uchun texnik topshiriqga asosan mazkur obyektning smeta hujjatlari soha mutaxassislari tomonidan ko‘rikdan o‘tkazilmadi.

Yuqoridagilarga asosan ushbu obyektning bosh rejasi keyingi bosqichda ishlab chiqilib taqdim etilishi ma’lum qilindi.

6.4. Buyurtmachi va Loyihachi tashkilotlarga kamchiliklarni bartaraf etish uchun izoh va talablar:

- Loyihalashtirilayotgan binoning sovutishda chiller qurilmasi orqali sovutish tizimi loyiha ishchi chizmalari to’liq ishlab chiqilishi va ish hajmalariga kiritib o’tilishi ta’minlansin.
- Tashqi ichimlik va oqova suv tarmog’i ishchi loyihasi ekspertiza ko‘rigiga taqdim etilmadi.

Mazkur kamchiliklar qurilish ishlari boshlangunga qadar mazkur kamchiliklar loyiha hujjatlari ishlab chiqish talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, obyektning loyiha-smeta hujjatlaridagi kamchiliklarni to‘g‘irlash va bartaraf etish bo‘yicha javobgarlik Buyurtmachi va loyiha tashkiloti zimmasida qoladi.

6.5.O‘zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi 684-son Qonuni va O‘zbekiston Respublkasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2022 yildagi 46-son qarori va ShNQ 4.01.16-09 me’yorlariga muvofiq obektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan yangi qurilish ishlari narxi bo‘yicha asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 4-bandiga asosan "Qurilishi markazlashtirilgan manba’lar hisobiga moliyalashtiriladigan obektlarning boshlang‘ich qiymati Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy saytiga (stat.uz) joylashtirib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizimlar xizmati uchun o‘rtacha narxlar hamda o‘rtacha ish haqi ko'rsatkichlaridan foydalangan holda shakllantiriladi" hamda mazkur qarorning 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.7. Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong‘in xavfsizligiga rioya qilinsin.

6.8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.05.2021-yildagi 321-sonli qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Toshkent shahar, Mirzo-Ulug‘bek tumani, Sayram MFY, Sayram ko‘chasi 22, 24-uy manzilida joylashgan quyi qavatlariда savdo va xizmat ko‘rsatish markazlari, shuningdek, savdo va kungilochar maydonlar, xizmat ko‘rsatish markazlari va ofislar uchun binolardan iborat biznes markazi bo‘lgan ko‘p qavatli turar-joy binolarini qurish” (Biznes markazi) ishlari yuzasidan loyiha hujjatlari kelgusida ko’rib chiqish va kelishish uchun tavsiya etiladi.

7.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o‘tkazish uchun obektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Bosh ekspert: Elmurodov Asliddin Kulmurodovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Xakimov Olimjon Kamiljanovich, Abdullayeva Nodira Mirzanazarovna, Yo‘ldoshaliyev Jahongir Dilshod O‘g‘li, Djabbarova Lenura Appazovna, Djurayev Sherali Axmatjanovich, Abdullayev Shavkat Rahmatulla O‘g‘li, Elmurodov Asliddin Kulmurodovich